Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, affiksatsiya usuli xitoy tilining morfologik xususiyatlariga mos ravishda amalga oshadi. Morfema va bo‘g‘in mosligi, yarim affikslarning faol qo‘llanishi termin yasalish jarayonini o‘ziga xos tarzda shakllantiradi. Bu esa quyosh energetikasi sohasidagi yangi terminlarning tez va samarali shakllanishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, affiksatsiya usuli hozirgi xitoy tili quyosh energetikasi terminologiyasida muhim o‘rin egallab, ilmiy-texnik tushunchalarning aniq, tizimli va ixcham ifodalanishiga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari xitoy tilshunosligida termin yasalish jarayonlarini chuqurroq o‘rganish hamda soha terminologiyasini tizimlashtirishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mustafayeva S.T. Xitoy tilshunoslik terminologiyasi. Fil.fan. falsafa dok. (PhD)… diss., Toshkent, TDSHI, 2017, 150-bet.

(2). Nasirova S.A. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur tahlili: filol. fan. nomzodi diss., Toshkent, TDSHI, 2008, 91-bet.

(3). Karimov A.A. Xitoy tilidagi hisob so‘zlar (leksik-semantik, struktural va funksional tahlil). Toshkent, 2003, 76-bet.

(4). Sultanova L.A. Xitoy tilining tibbiyot terminologiyasi (jarrohlik terminlari misolida). Fil.fan.falsafa dok. …avtoref., Toshkent, 2022, 60-bet.

(5). Xashimova S.A. Hozirgi xitoy tilida reduplikatsiya, affiksatsiya va konversiya. Diss…(DSc), Tashkent, 2020, 27-bet.

(6). Даниленко В.П. Русская терминология: опыт лингвистического описания. М., “Наука”, 1977, с. 90.

(7). Драгунов А. Грамматическая система современного китайского языка. Л., 1962, 270 с.

(8). Горелов В. Лексикология китайского языка. М., “Просвещение”, 1984, 321 с.

(9). Фролова О. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. Н., 1981, 132 с.

(10). Ошанин И. Слово и части речи в китайском языке. М., 1946, 125 с.

(11). Коротков Н. Основные особенности морфологического строя китайского языка. М., 1968, 400 с.

(12). Кленин И., Щичко В. Лексикология и фразеология китайского языка. М., 1978, 191 с.

(13). Солнцев В. Очерки по современному китайскому языку. М., “Восточная литература”, 1957, с. 81.

(14). Хаматова А. Словообразование современного китайского языка. М., “Муравей”, 2003, 223 с.

(15). Цыкин В.А. Именное словообразование в современном китайском языке. М., 1980, с. 12.

(16). 陈洁.论构词法与造词法的纠结及汉语造词法的类型[J].现代语文(语言研究版),2012:12-15 页

(17). 李金斯.汉语词汇研究.-北京，2001：71页

(18). 鲁直委. 汉语的构词法. – 北京, 1957. – 页 124.

(19).李进熙，刘世柱。汉语语法教学[汉语语法学习材料]。北京，1959 年，页. 37

(20). 丁中坚. 现代汉语语法讲话. – 北京, 1979. — 页 37.

(21). 赵原忍. 北京口语语法. – 香港, 1974. – 页 37.

(22). 高名凯，石安石. 语言学概论. 北京：中华书局出版社，1979. 第155–158页.

Xudayqulov Abdulla Eshquvatovich (Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD; axudayqulov@tersu.uz)

O‘ZBEK TILIDAGI RASMIY-IDORAVIY HUJJATLAR MATNLARIDA AYRIM INGLIZCHA QISQARTMALARNING ISHLATILISHI XUSUSIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz tilidan o‘zlashgan qisqartmalarning o‘zbek tili rasmiy-idoraviy hujjatlari matnlarida ishlatilishi o‘rganilgan. Unda etimologik jihatdan ingliz tiliga mansub bo‘lgan bir qator o‘zlashmalarning o‘zbek tilida ishlatilishi yozma manbalar asosida tahlil qilinib, ingliz o‘zlashmalarining so‘z oluvchi til qoidalariga moslashishi haqida ma’lumotlar berilgan. Ushbu abbreviatsiyalarni o‘zbek leksik birliklar bilan almashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *leksika, o‘zlashma, abbreviatsion o‘zlashma, yozma manbalar, ingliz tili, o‘zbek tili, moslashish.*

Худайкулов Абдулла Эшкуватович (доцент Термезского государственного университета, PhD; axudayqulov@tersu.uz)

УПОТРЕБЛЕНИЕ НЕКОТОРЫХ АНГЛИЙСКИХ АББРЕВИАТУР В ТЕКСТАХ УЗБЕКСКИХ ОФИЦИАЛЬНО-ДЕЛОВЫХДОКУМЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье изучается использование английских аббревиатур в текстах официально-деловых документов узбекского языка. На основе письменных источников анализируется использование ряд английских аббревиатур в узбекском языке, а также приводятся сведения*

об адаптации английских аббревиатур к языку-рецепиенту. Рассматриваются возможности замены данных аббревиатур узбекскими лексическими единицами.

Ключевые слова: *лексика, заимствование, аббревиационное заимствование, письменные источники, английский язык, узбекский язык, адаптация.*

Khudaykulov Abdulla Eshkuvatovich (Docent of the Termez State University, PhD; axudayqulov@tersu.uz)

USAGE OF SOME ENGLISH ABBREVIATIONS IN TEXTS OF UZBEK OFFICIAL-BUSINESS DOCUMENTS

Annotation. *This article examines the use of English abbreviations used in the texts of Uzbek official-business documents. Based on written sources, it analyzes the use of a number of abbreviations etymologically related to English in the texts of Uzbek official-business documents and provides information on the adaptation of English abbreviations to the recipient language. The possibilities of replacing these abbreviations with Uzbek lexical units are discussed.*

Keywords*: vocabulary, borrowings, abbreviated loan words, written sources, English, Uzbek, adaptation.*

Kirish. Bugungi globallashuv zamonida tillararo aloqalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tillararo aloqalar deganda tilning ichki qurilishi va lug'atiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadigan ikki yoki undan ortiq tillarning o'zaro munosabatlari tushuniladi. Hozirgi vaqtda bir qator tilshunoslarning qiziqishlari o'zbek-ingliz tillari o'rtasidagi aloqalari natijasida o'zlashgan leksik birliklarni o'rganishga qaratilgan.

O'zbek tili lug'at tarkibida ko'p sonli ingliz o'zlashmalarining paydo bo'lishi, ularning tilimizga tez moslashishi ijtimoiy va ilmiy hayotdagi jadal o'zgarishlar bilan izohlanadi. Axborot oqimlarining kuchayishi, internet va axborot texnologiyalarining rivojlanishi, davlatlararo diplomatik va xalqaro aloqalarning kengayishi, jahon bozori, iqtisodiyot hamda madaniy aloqalarning rivojlanib borishi o'zbek tiliga yangi o'zlashmalarning kirib kelishiga zamin yaratadi. Turli tillardan o'zlashgan leksik birliklar qatorida ingliz tilidan kirgan abbreviatsiyalar salmog'i ham kun sayin ortib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Lingvistik o'zlashmalarni o'rganish xorijiy tilda ham, mahalliy tilshunoslikda ham uzoq vaqtdan beri davom etib kelmoqda, chunki xorijiy so'zlar hisobidan leksik tarkibini to'ldirmaydigan tilni topish mumkin emas.

I.A.Boduen de Kurtenening bayonotiga ko'ra, «Barcha tillarning aralash tabiati to'g'risida» nomli asarida «... bitta sof, aralash bo'lmagan lingvistik yaxlitlik yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Aralash – hamma hayotning boshlanishi...", degan fikrini rad etib bo'lmaydi [1;362-b.].

Lingvistik lug'atlarda "abbreviatsiya" atamasiga turlicha ta'riflar beriladi. S.I.Ojegov tomonidan tuzulgan "Rus tilining izohli lug'ati"da "Abbreviatura" atamasiga berilgan ta'rifda, asosan, ot so'z turkumiga mansub qisqartirilgan so'zlar majmui tushuniladi [18;23-b.].

L.P.Krisinning "Chet til so'zlarining izohli lug'ati"ga ko'ra, abbreviaturalar (Italyancha abbreviatura < lot. brevis – qisqa) terminologik birliklarni, tildagi emotsional bo'yoqdor, ijtimoiy jihatdan markerlangan va o'zgaruvchan leksik birliklarni ifodalaydi. Ular turli mavzuviy sohalarga doir atoqli va turdosh otlarni ifodalash uchun qo'llaniladi [19;27-b.].

Tilshunoslikda qisqartmalarning bir necha turlari farqlanadi. O'zlashmalar orasida tuzilishiga ko'ra turlicha bo'lgan ko'plab qisqartmalar uchraydi. Songgi yillarda inglizcha abbreviatsion o'zlashmalarning rus tilida ishlatilishi tadqiqi borasida D.I.Matyushkinaning ilmiy maqolasini keltirish mumkin [20]. Ammo inglizcha abbreviatsion o'zlashmalarning o'zbek tilida ishlatilishi tadqiqttalab mavzulardandir.

Tadqiqot metodologiyasi. Turli davrlarda yangi olingan so'zlar oqimining intensivligi turlicha ahamiyat kasb etadi. Muayyan tarixiy sharoitga qarab u yo ortadi, yoki kamayadi. Bir tilning boshqa tilga ta'siri darajasi ko'p jihatdan lingvistik omilga, ya'ni, o'zaro ta'sir qiluvchi tillarning yaqinlik darajasiga bog'liq. Ingliz va o'zbek tillari genetik jihatdan o'zaro yaqin bo'lmasalarda, ingliz tilining dunoyoda keng tarqalganligi va ommaviligi sabab, ko'plab inglizcha o'zlashmalar yoki anglitsizmlar miqdori o'zbek tilida tobora ortib bormoqda.

O'zlashmalar qaysi tildan kirib kelgan bo'lishlaridan qat'iy nazar, o'zbek tilining lug'at boyligi hisoblanib kelinadi, lekin bu tillarning sofligi uchun aks ta'sir qilishi mumkin. Shu bois o'zlashmalarni olish zarurati, ularning kirib kelish tarixi va yo'llari, dinamikasi va lingvistik xususiyatlarini o'rganib borish tilshunoslarning dolzarb vazifalaridandir. So'z o'zlashtirishning asosan og'zaki va yozma usullari mavjud bo'lib, asosan, yozma usul orqali olingan o'zlashmalar muayyan so'zning kirib kelish davri hamda dinamikasini o'rganish imkonini beradi. Bu borada turli hujjatlar, yozma yodgorliklar, memuarlar, hisobotlar va kundaliklar muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. O'zbek tilining rasmiy-idoraviy hujjatlari matnlarida uchraydigan ingliz tilidan o'zlashib, o'zaklashib borayotgan ko'plab leksik birliklar orasida bir qator abbreviatsiya (qisqartma)lar diqqatimizni tortdi: *ID* [ingl. Identification – shaxsiyat], *QR* [ingl. Quick Response – tez javob], *VPN* [ingl.

Virtual Private Network – shaxsiy virtual tarmoq], *GS1* [ingl. Global standards], *wi-fi* [ingl. Wireles fidelity], GM [ingl. General Motors] va boshqalar.

Zamonaviy matbuotda abbreviatsiyalarning ishlatilishi mavzusida tadqiqot olib borgan O.G. Kosareva qisqartmalarga shunday ta'rif beradi: "Qisqartma kommunikativ birliklarning moddiy qobig'ini kamaytiradi va shu bilan axborot oqimi tezligini oshiradi" [2]. Ushbu fikrga tayangan holda, ingliz abbreviatsiyalarining o'zbek tilidagi rasmiy-idoraviy hujjatlar matnlarida ishatilishini tadqiq qilishga qaror qildik.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yildagi "Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogini joriy etish, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida tuzilgan shartnomalarni elektron ro'yxatdan o'tkazish va tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni elektron rasmiylashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 249-qarorida *ID, QR* abbreviatsiyalari ishlatiladi: "Elektron tovar-transport yuk xati reestrga kiritilgandan keyin unga *ID* va *QR* kodlarini biriktirish hamda kelib tushgan elektron tovar-transport yuk xatining ushbu Nizom talablariga muvofiqligini tek-shirib, ishtirokchilarga uning operatori orqali yetkazadi" [3].

Ingliz tilining Collins English Dictionary lug'atiga ko'ra ID qisqartmasining asosi bo'lgan "identification" so'zi lotin tilidan ingliz tiliga o'zlashtirilgan [4]. Bugungi kundagi ID karta, "shaxsni tasdiqlovchi hujjat" ma'nosida ingliz tilida o'tgan asrning 1955 yilidan buyon ishlatiladi. Aynan shu ma'noda o'zbek tiliga o'zlashtirilgan: "...yakka tartibdagi tadbirkorning ismi, familiyasi va otasining ismi o'zgarganligi haqidagi ma'lumotlar – Ichki ishlar vazirligining "*ID-karta*" avtomatlashtirilgan axborot tizimidan;.." [5].

O'zbek tilidagi jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR), "OneID" qisqartmalari ham "identifikatsiya" so'zi asosida yasalganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yildagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 629-qarorida *OneID* abbreviatsiyasi ishlatilgan: "Respondentlarga qulaylik yaratish maqsadida *"OneID"* tizimida ro'yxatga olishning osonlashtirilgan tartibini joriy etsin va mazkur tizimning uzluksiz ishlashini ta'minlasin" [6].

Bugungi kunda "OneID" davlat xizmatlari, ta'lim va boshqa sohalarda elektron hujjatlarni yuritishda asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Tabiiyki, u tilimizga moslashib, nutqimizda keng ishlatilmoqda, lekin lug'atlarimizga haligacha kiritilmagan.

Yana bir inglizcha abbreviatsiya QR-kod ham rasmiy hujjatlarda ko'p ishlatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 249-qarorida *QR-kodga* shunday ta`rif keltiriladi: "QR-код – Portalda ro'yxatdan o'tkazilgan elektron shartnomaga biriktiriladigan, mobil ilovalar va dasturiy mahsulotlar orqali o'qish (skanerlash) vaqtida elektron shartnoma haqida barcha ma'lumotlarga havola bo'ladigan maxsus grafik kod" [7].

Birinchi QR kodlari 1994-yilda Toyota sho'ba korxonasi bo'lgan Yaponiyaning Denso zavodida avtomobillar va ularning qismlarini ishlab chiqarishni kuzatish usuli sifatida paydo bo'lgan. Avtomobil ishlab chiqaruvchisi xodimlari ehtiyot qismlarni belgilash uchun ishlatiladigan standart shtrix-kodlar sekin o'qilishi va kam ma`lumot saqlashidan shikoyat qilishdi. Bunga javoban, 1992-yilda Masahiro Hara ismli xodim ko'rinadigan, har qanday burchakdan o'qilishi mumkin bo'lgan va ko'proq ma'lumot saqlaydigan kod ustida ishlay boshladi. U ushbu dizaynni o'yinchilar oq va qora toshlarni doskaga strategik ravishda joylashtiradigan Go stol o'yinini o'ynashni yaxshi ko'rganligi uchun tanlagan [8]. Bugungi kunda, ushbu qisqartma tilimizda tobora faollashmoqda, zero, QR-kodlarini skanerlash orqali keng imkoniyatlarga ega bo'lmoqdamiz. Ushbu qisqartmaning fonetik jihatdan moslashishi ham kuzatiladi.

Rasmiy idoraviy hujjatlar matnlarida ham inglizcha qisqartmalar soni juda ko`p uchramoqda. Masalan, *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risidagi PQ-241-qarorida LED* /ingl: light-emitting diode, "yorituvchi diod"– bu yarimo'tkazgichli yorug'lik manbai bo'lib, tokni bevosita yorug'likka aylantiradi], SMS [ingl.: Short Message Service – qisqa xabar xizmati) kabi qator anglisizmlar ishlatilganligini kuzatishimiz mumkin: "Tuman va shaharlardagi ko'chalarda joylashgan *LED ekranlar*da "Istiqloling muborak, jonajon O'zbekistonim!" mavzusidagi ijtimoiy roliklarni keng namoyish etish" [9].

"Mamlakatimizdagi mobil aloqa operatorlari tomonidan abonentlarga "Mustaqillik bayramingiz muborak bo'lsin!" matnli *SMS-tabriklar* jo'natish" [9].

Ushbu har ikki o'zlashmalarni to'g'ridan to'g'ri o'zlashtirish o'rniga o'zbekcha tarjimalaridan foydalanish mumkin edi.

Yana bir anglitsizm *VPN* [ingl. Virtual Private Network – virtual xususiy *tarmoq]* qisqartmasi ham bugungi kunda axborot texnogiyalari sohasida keng qo'llanilmoqda. Mazkur ma'noda sohaning rasmiy-idoraviy hujjatlar matnlarida ham tez-tez uchraydi: "mahalla yettiligi" xodimlarining planshet qurilmalarini himoyalangan *virtual aloqa kanali* (VPN) bilan ta'minlash..." [10]. Ingliz tilining bir qator leksikografik manbalarida mazkur abbreviatsiyaning 1980–1985-yillarda paydo bo'lganligi ko'rsatiladi [11]. Ko'rinadi-

ki, ushbu misolda inglizcha “network” so‘zi “kanal” so‘zi bilan almshtirilgan bo‘lsa, uning ma‘nosini yana-da oydinlashtirish uchun *aloqa* so‘zi qo‘shilgan.

Tahlilga tortilgan o‘zlashma abbreviatsiyalar orasida GS qisqartmasi o‘zbek o‘quvchilari uchun anchayin qiyinchilik tug`diradi. Chunki ingliz tilida bu qisqartma bir qancha ingliz tilida *General Staff (GS), General Schedule (GS), Green Seal (GS), Gold-Silver(GS)* va boshqa birikmalarni ifodalsh uchun ham ishlatiladi. Shuningdek, GS1 qisqartmasi ham Global Standards One, Glutamine Synthetase 1 *(gene),* Griscelli Syndrome, Type 1; Gas Turbine System Technician First Class (*Naval Rating*), Griffonia Simplicifolia Agglutunin 1 birikmalarini ifodalsh uchun ishlatiladi [12].

O‘zbek tilidagi rasmiy hujjatlar matnlarida Global Standards One (Birinchi Xalqaro Standart) birikmasini ifodalaydi: **“...tovar kodi** – tovarlarning xalqaro «GS1» va boshqa global ma’lumotnomalar tizimlaridagi mantiqiy birliklar asosida yuritiladigan takrorlanmaydigan raqami” [13]. GS1 qisqartmasi sohadan yiroq bo‘lgan o‘quvchu, umuman, tushunarsiz. Shu bois bunday qisqartmalarni matnda ishlatishda sharhlab ketish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bugungi kunda *wi-fi* atamasi hayotimizga chuqur singib ulgurdi. Inglizcha abbreviatura *wi-fi* o‘zbek tilidagi rasmiy ish hujjatlarida ishlatiladi: «... eng zamonaviy kompyuter texnikasi, axborot kioskalari va virtual ma’lumotnoma xizmatlari bilan jihozlangan kutubxonaning qiroatxona zalida hamda *Wi-Fi* ma’lumotlar uzatishning simsiz texnologiyalaridan va internetdan foydalangan holda ...» [15].

Wi-Fi atamasi 1991-yilda Niderlandiyada Vik Heizos tomonidan ixtiro qilingan elektron uskunalarni tavsiflash uchun keng qo'llanila boshlagan [16].

Mazkur anglitsizm *wi-fi* [vajfaj] grafik shaklida ko‘p tillarda, jumaldan rus va o‘zbek tillarida ham ishlatiladi. Ayrim holatlarda [viy-fiy] deb talaffuz qilishadi, lekin bu okkazional holat. XXI asr rus tilining izohli lug‘atida *wi-fi* qisqartmasi shunday yoritiladi: «Ingl. Wi-Fi < wireless fidelity – “simsiz aniqlik”... – Wi-Fi 1991 yilda dastlab Niderlandiyada NCR Corporation /AT&T kompaniyasi tomonidan yaratilgan» [17]. Keyinchalik, bu texnologiyaning ommalashuvi, wi-fi qisqartmasi shaklida butun dunyoga keng tarqalib ketishiga zamin yaratdi, jumladan, o‘zbek tilining faol leksikasidan joy olib ulgurdi.

Xulosa va takliflar: Ko‘rinadiki, qator qisqartma o‘zlashmalarning o‘zbek tiliga kirib kelishi fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Mazkur qisqartmalar kelajakda arxaiklashib iste’moldan chiqib ketishi mumkin. Lekin bugungi kunda varvarizmlar sifatida tilimizda keng ishlatilib, tilimizning sofligi uchun raxna solmoqda. Shu bilan birga, qator qisqartmalar keng jamoatchilik uchun tushunarli emas. Shu bois bunday qisqartmalarni ishlatmaslik yoki, imkon qadar, o‘zbekchalashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). de Courtena I.B. (2017). О смешанном характере всех языков. Чуждоезиково обучение, 44(5), с. 548–558

(2). Косарева О.Г. (2003). Аббревиация в языке современной прессы. Дисс.... канд. филол. наук, Тверь, 2003, 163 с.

(3). https://lex.uz/docs/-5394977?ONDATE=29.04.2021%2000

(4). https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/id

(5). https://lex.uz/docs/-7840557?query=id%20karta#sr-1

(6). https://lex.uz/uz/docs/-7760407

(7). https://lex.uz/docs/5394977?ONDATE=18.02.2023%2000

(8). https://meduza.io/feature/2021/07/10/istoriya-qr-koda

(9). https://lex.uz/uz/docs/-6549682

(10). https://lex.uz/docs/-7760407?query=VPN#sr-1

(11). https://www.dictionary.com/browse/VPN

(12). https://acronyms.thefreedictionary.com/GS1

(13). https://lex.uz/docs/4603329?query= 81#sr-1;

(14). https://www.lex.uz/docs/4603329?ONDATE=12.12.2024&ONDATE2=13.05.2022&action=compare

(15). ЎзР ВМнинг 2011 йил 14 ноябрдаги “Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси фаолиятини ташкил этиш ва “Маърифат маркази” биносидан самарали фойдаланишни таъминлаш тўғрисида”ги 302-қарори.

(16). https://windows-9.net/wifi.html

(17). Толковый словарь русского языка XXI века // https://how-to-all.com/значение:вай-фай

(18). Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка. Под ред. Н.Ю. Шведовой. Москва, “Русский язык”, 1990, 923 с.

(19). Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. М., “Эксмо”, 2010, 940 с.

(20). Матюшенк Д.И. (2024). О некоторых особенностях использования в русском языке заимствованных англоязычных аббревиатур.